

## JAMIYATIMIZDA OILAVIY ZO‘RAVONLIKLARGA BARHAM BERAYLIK!

*Jumanova Shaxlo Amirovna*

*Sergeli tumani MMTB tasarrufidagi 68-umumta’lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaviy zo‘ravonlikning jamiyatdagi o‘rni, uning kelib chiqish sabablari, turlari hamda shaxs va jamiyatga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri yoritiladi. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va unga barham berishning psixologik, ijtimoiy hamda huquqiy yo‘llari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy zo‘ravonlik, oila, jamiyat, psixologiya, stress, himoya, tarbiya, profilaktika.

### KIRISH

Oilaviy zo‘ravonlik — bu oila ichida bir a’zoning boshqa a’zoga nisbatan jismoniy, ruhiy, iqtisodiy yoki emotsional bosim o‘tkazishi bilan ifodalanadigan salbiy ijtimoiy hodisadir. Bu muammo nafaqat oila muhitiga, balki butun jamiyat barqarorligiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Ular orasida jismoniy zo‘ravonlik (urush, jarohat yetkazish), psixologik zo‘ravonlik (haqorat, kamsitish, qo‘rqitish), iqtisodiy zo‘ravonlik (moliya ustidan nazorat, moddiy ehtiyojlarni cheklash) va e’tiborsizlik (mehr va g‘amxo‘rlik yetishmasligi) kabi ko‘rinishlar mavjud.

Oilaviy zo‘ravonlikning kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Eng avvalo, oiladagi muloqot madaniyatining pastligi muhim omil hisoblanadi. Oila a’zolari bir-birini tinglamasligi va tushunmasligi nizolarning kuchayishiga olib keladi.

Shuningdek, psixologik muammolar, stress, asabiylik va ichki ziddiyatlar ham zo‘ravonlikni kuchaytiradi. Ayrim hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va moddiy yetishmovchilik ham oilaviy muhitga salbiy ta’sir qiladi.

Oilaviy zo‘ravonlikning oqibatlari juda jiddiydir. U oiladagi ishonchni yo‘qotadi, bolalarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va jamiyatda nosog‘lom muhit shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bolalar bunday muhitda o‘sib-ulg‘aysa, ularda qo‘rquv, agressiya, o‘ziga ishonchsizlik kabi psixologik muammolar paydo bo‘ladi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun birinchi navbatda oilaviy muloqotni mustahkamlash zarur. Oila a’zolari o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishi va muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishi kerak. Psixologik yordam va maslahatlar ham muhim ahamiyatga ega. Psixologlar oiladagi nizolarni tahlil qilib, ularni hal

etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borilishi lozim. Bu orqali jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan salbiy munosabat shakllantiriladi. Huquqiy choralar ham muhim o'rin tutadi. Zo'ravonlikka qarshi qonunlar ijrosini ta'minlash va jabrlanganlarni himoya qilish tizimi kuchaytirilishi kerak.

Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik birinchi marta ijtimoiy muammo sifatida XX asr oxirida tan olinganligini bilamiz. Biroq, XX asrning o'rtalariga qadar ushbu mavzuga bag'ishlangan jiddiy va keng ko'lamli tadqiqotlar mavjud emas edi. O'sha paytda olib borilgan tadqiqotlar asosan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik turlariga tegishli edi. Masalan, o'tgan asrning 60-yillarida Genri Kempe bolalarga beparvolik va jismoniy zo'ravonlik muammolari bilan shug'ullangan va 1962-yilda birinchi marta "kaltaklangan bolalar sindromi" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. O'zbekistonda faqat XX asrning oxirida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik muammosi juda keng tarqalgan holda paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtda qonunchilikda bunday zo'ravonlikka qarshi kurashishning mutlaqo samarali mexanizmi mavjud emas, bu esa: bu sohadagi ishlar holatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik muammosining dolzarbligi. Statistik ma'lumotlar oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning global miqyosda ham, milliy miqyosda ham, xususan, O'zbekiston Respublikasida dahshatli ko'lamini ko'rsatmoqda.

Amerikalik tadqiqotchilar quyidagi statistik ma'lumotlarni taqdim etdilar: 15,5 mln. AQSH bolalari yiliga kamida bir marta ota-onalardan biri tomonidan zo'ravonlik sodir bo'lgan oilalarda yashaydi; yetti million bola ota-onadan birining yaqin sherigi tomonidan qattiq zo'ravonlikka uchragan oilalarda yashaydi

Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qurbonlarining asosiy qismi ayollar va bolalardir. Sh.U. Stepanyanning ta'kidlashicha, ayollar va bolalar oilaviy zo'ravonlik qurbonlarining 70% ni tashkil qilishi jiddiy tashvish uyg'otadi. Bolalar, qariyalar, nogironlar, qaramlik holati tufayli o'zini himoya qila olmaydigan ayollar oilada har yili oiladagi zo'ravonlik natijasida halok bo'lganlarning qariyb 38 foizini tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har besh ayoldan biri hayotida kamida bir marta oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'ladi va har yili 15 milliondan ortiq bola oila a'zolariga nisbatan zo'ravonlikka guvoh bo'ladi.

Aksar tadqiqotchilar oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bolaning psixikasiga, ya'ni ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishini, kognitiv (anglash) va hissiy rivojlanishning kechikishiga olib kelishini, turli xil fobiyalar, ya'ni qo'rquvlarni rivojlantirishi bilan juda zararli bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi. Ushbu holatlar oilaviy (maishiy) zo'ravonlik sabablarini ko'rib chiqish, shuningdek, unga qarshi kurashishning samarali vositalarini izlash masalasiga yondashish zaruratini

vujudga keltiradi.

Huquqshunos tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'ravonlikni to'rtta tasniflash, ya'ni klassifikatsiya guruhiga bo'linadi: jinsiy zo'ravonlik, moliyaviy, ya'ni iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik va hissiy zo'ravonlik. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, mazkur zo'ravonlik turlarining har biri ruhiyati shakllanish jarayonida bo'lgan bolaning hissiy salomatligiga sezilarli zarar yetkazishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka uchragan bolalar, travma, ya'ni jarohatdan keyingi stress, ya'ni ruhiy tushkunlik belgilaridan aziyat chekadi, jumladan, to'shakni ho'llash yoki qo'rqinchli tush ko'rish, allergiya, astma, oshqozon-ichak muammolari, bosh og'rig'i va tengdoshlariga qaraganda ko'proq gripp, ya'ni shamollash kasalliklari ko'proq va teztez kuzatiladi.

Bundan tashqari, oilaviy zo'ravonlik prenatal, ya'ni tug'ruq oldi jismoniy zo'ravonlikni boshdan kechirgan onalari bo'lgan bolalarga ham xuddi shunday salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan bo'lib, bunday bolalar tajovuzkorlik, depressiya yoki giperaktiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi mumkinligini ham alohida qayd etishimiz zarur. Bularning barchasi oilaviy (maishiy) zo'ravonlik muammosini kompleks yondashuv asosida hal qilishni, nafaqat qonunchilikdagi o'zgarishlarga, balki huquqbuzarliklarning oldini olish, shu jumladan, tadqiqot orqali oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning psixologik komponenti va uning oldini olishga ta'sir qilishi muhim ahamiyatga ega. R. Qayumovning fikricha, "oiladagi ishlarning asosiy qismi xotin-qizlar zimmasiga tushadi, buning natijasida ular o'zlaring to'la huquqliligi imkoniyatidan foydalana olmaydilar, shu sababli davlat oilarda xotin-qizlar va erkaklarning qo'shimcha ravishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari ko'rmog'i darkor"

Fikrimizcha, R. Qayumovning bu boradagi qarashlari biroz mavhum bo'lib, davlatning aralashuvi oiladagi ayollar, bolalar va qariyalarning huquqlarini kamsitilishining har qanday ko'rinishini oldini olishning asosiy mexanizmi vazifasini bajarishi imkonsiz.

Psixologlar "oilaviy zo'ravonlik" va "maishiy zo'ravonlik" kabi tushunchalarni sinonimlar deb hisoblashadi. Masalan, E.P. Agapovning fikricha, "oilaviy zo'ravonlik yoki maishiy zo'ravonlik - qasddan jismoniy va/yoki ruhiy zarar yetkazish va oila a'zolariga azob berish, shu jumladan, bunday xatti-harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash, shaxsiy erkinlik mahrum qilish, ya'ni, zo'ravonlik - bu inson ustidan cheksiz hokimiyatga erishish, boshqa odamning xatti-harakatlari, fikrlari, histuyg'ularini to'liq nazorat qilish". Sanab o'tilgan yondashuv asosan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik ta'rifining psixologik tarkibiy qismiga ta'sir qiladi.

Bilamizki, jinoyat huquqi nazariyasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik

tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Biroq, yagona yondashuv hech qachon ishlab chiqilmagan. Xususan, A.S. Pashchenko, "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" atamasini "oila a'zolariga nisbatan odamlarni o'zlari istamagan narsalarni qilishga majburlash uchun tahdid yoki jazo sifatida og'riq, haqorat, jismoniy cheklash maqsadida ularning irodasiga qarshi harakatlar" jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lgan noqonuniy harakat" deb hisoblaydi.

Bilamizki, "Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kampaniyasi mamlakatimizda 2021-yilning 25-noyabrida e'lon qilindi. Kampaniya boshlanishini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi Senat raisi Tanzila Narbayeva zo'ravonlikka qarshi kurashda "uzoq va mashaqqatli ishlar" turganini va unda "har birimizning ishtirokimiz muhim" ekanligini ta'kidlagandilar. Shuningdek, "Mamlakatimizda ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, zo'ravonlik qurbonlarini rehabilitatsiya qilish bo'yicha qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga jamiyatimizda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari uchrab turibdi, bunday xolatlarni endi yashirib bo'lmaydi. Ammo ba'zi opa-singillarimiz o'zlari bilan sodir bo'lgan zo'ravonlik holatlarini oshkor qilmaslikni afzal ko'rishlarini ham yaxshi bilamiz", – deya alohida ta'kidlab o'tdilar.

Respublikamizda bugungi kunga kelib, zo'ravonlikka uchragan ayollarga yordam ko'rsatuvchi 10 dan ortiq tashkilotlar bor. Endi "Xotiniga yengil tarsaki urgan yoki yomon so'z aytgan" xam jinoyatchi hisoblanishi Qonunchiligimizda belgilab qo'yildi. Xususan, O'zbekistonda turmush o'rtoqlardan biriga og'ir tan jarohati yetkazganlik uchun endilikda ular 12 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizda bolaga nisbatan bunday harakatga yo'l qo'ygan shaxslar kim bo'lishidan qat'iy nazar qonunan javob berishi ta'minlanadi.

Bizning fikrimizcha, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bunday zo'ravonlik qurbonini kamsituvchi moliyaviy, jinsiy, jismoniy, hissiy yoki boshqa holatga keltiradigan, shuningdek jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy ta'sir va boshqa tarzda unga ta'sir qilish, tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning oldini olish masalasini qonunchilikda hal etish bo'yicha qizg'in bahsmunozaralarga qaramay, bizningcha, jinoyatchining bunday harakatlari shaxslar bunday qilmishlar uchun nafaqat jinoiy javobgarlik belgilashni, balki ularni muayyan psixokorreksiya, ya'ni ruhan sog'lomlashtirishni ham taqazo etadi. Biz oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi kurash jarayonida huquqiy va psixologik mexanizmlar jalb qilinishi kerak, deb hisoblaymiz. Jinoiy-huquqiy xarakterdagi choralar orasida ko'plab tadqiqotchilar qo'shimcha sifatida - majburiy psixologik va ijtimoiylashtirish choralarini ham qo'llashni ko'rib chiqadilar. Bu chora-tadbirlar oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatlarini sodir

etgan shaxslarga tadbiriq etilishi taklif qilinadi. Majburiy psixologik-resotsializatsiya takrorlangan taqdirda psixologik yordam ko'rsatish choralarini ko'rish yordamida jinoyatchini jamiyatga jalb qilish va uning jamiyatda mavjud qadriyatlar haqidagi g'oyalari o'zgartirish, shuningdek, yangi zo'rvonlik jinoyatlarining oldini olishga zamin yaratiladi, deb hisoblaymiz. Biz bu nuqtayi nazarni oilaviy (maishiy) zo'rvonlikning oldini olish masalasini hal qilishda atroflicha yordam berishiga ishonamiz.

Shunday qilib, oilaviy (maishiy) zo'rvonlik muammosini o'rganish quyidagi xulosalar chiqarishga olib keldi:

1. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik muammosi sohalararo xarakterdagi muammolardan biridir.

2. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikka qarshi kurashda nafaqat jinoiy-huquqiy, balki psixologik mexanizmlar va boshqa usullardan foydalanishimiz kerak.

3. Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining o'zaro aloqasi chambarchas bog'liq. 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibi va O'zbekistonning Milliy maqsad va vazifalarida ham oilaviy zo'rvonlikni bartaraf etish masalasi mavjud. BMTning "hech kim ortda qolmaydi" tamoyilini hayotimizga tatbiriq etishimiz lozim. Bunda biz Barqaror rivojlanish maqsadlarining inson huquqlariga rioya qilishga asoslanishi, ularning inson huquqlari bo'yicha milliy, mintaqaviy va xalqaro mexanizmlar tomonidan monitoring qilinishini amalga oshirishimiz kerak.

4. Profilaktik chora-tadbirlar qatorida jinoiy-huquqiy xarakterdagi boshqa choralar sifatida qaralishi lozim bo'lgan psixologik va ijtimoiylashtiruvchi majburlov choralarini ko'rish zarur.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilaviy zo'rvonlikka barham berish har bir fuqaroning, har bir oilaning va butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Mehr, hurmat va o'zaro tushunish asosida qurilgan oila — sog'lom jamiyat poydevoridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stepanyan Sh.U. Oiladagi jinoyat omillari - ayollar jinoyati uchun katalizator //Fuqaro va qonun. 2008. № 8. B.60-65.

2. Kolpakova L.A. Oilaviy zo'rvonlik: qurbonlik jihati, javobgarlikni farqlash va qonunchilik masalalari: dissertatsiya. Qozon, 2007. 26 b.

3. Грахам-Берманн С.А., Сенг, Ж. Зўравонлик таъсири ва травматик стресс белгилари юқори хавфли болаларда соғлиқ муаммоларининг кўшимча прогнози сифатида // Педиатрия журнали. 2005 йил. № 146 (3). 349-354-бетлар.

4. Қаюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. - Т.: "Адолат", 2006. 181-бет.
5. Агапов Э.П. Оилавий психология. М.: "Дашков ва К°" нашриёт-савдо корпорацияси, 2012. 400 б.
6. Пашченко А.С. Оиладаги зўравонлик тушунчаси // Ижтимоий ривожланиш назарияси ва амалиёти. 2005 йил. № 1. 46-48-бетлар.
7. Ziyo.net